

---

## SUBSIDIYA ASOSIDA BERILGAN TIKUV MASHINASI YORDAMIDA AYOLLAR O'Z OILALARIGA QO'SHIMCHA DAROMAD KELTIRMOQDALAR

Toshloq tumanida ijtimoiy og'ir holatdagi ayollarni qo'llab-quvvatlash, ularning qo'shimcha daromad olishlari hisobiga oilalarida farovonlikni ta'minlash maqsadida subsidiya asosida zamonaviy tikuv mashinalari tarqatib kelinmoqda.

Natijada mahallalarda hunarmand xotin-qizlar safi ko'payib, o'zini-o'zi bandligi ta'minlanmoqda. Qoriyaxon Xudoyberdiyeva "Toshloq" mahalla fuqarolar yig'inida istiqomat qiladi. 2022 yilda unga subsidiya asosida tikuv mashinasi ajratilgan edi. Hozirda tikuvchilik bilan shug'llanayotgan Qoriyaxon o'z oilasi uchun qo'shimcha daromad topmoqda.

2023-04-18 16:40:44